

Imomov Murodjon G'ulom o`g`li.

Ro'zmetov Sulaymon Ilxomboy og'li

DTPI Pedagogika fakulteti

Jismoniy madanyat talabasi

imomovmurodjon32@gmel.com

ANNOTATSIYA: Aristotel, qadimgi Yunoniston faylasuf, bilim va tajriba o'rtasidagi muvozanatni o'rganishga qaratilgan falsafiy sistemaga ega. U mantiq, etik, politologiya va tabiiy fanlarda tahlil va nazariyalar taklif qilgan. Uning asarlarida inson xulqi, ijtimoiy hayot va tabiat qonunlari haqida chuqur mulohazalar mavjud.

Kalit so`zlar: . Mantiq, Falsaf,Etika, Meta,fizik,Rivojlanish

АБСТРАКТНЫЙ: Аристотель, древнегреческий философ, разработал философскую систему, основанную на балансе между знанием и опытом. Он предложил анализы и теории в логике, этике, политологии и естественных науках. В его трудах содержатся глубокие размышления о человеческом поведении, социальной жизни и законах природы.

Ключевые слова: Логика ,. Философия , Этика . Мета,Развитие

ABSTRACT: Aristotle, the ancient Greek philosopher, developed a philosophical system focused on the balance between knowledge and experience. He offered analyses and theories in logic, ethics, political science, and natural sciences. His works contain profound reflections on human behavior, social life, and the laws of nature.

Key words: Logic,Philosophy, Ethics, Metaphysics, Development

Kirish

Aristotelning hayoti haqida juda kam narsa ma'lum. Olim shimoliy Gretsiyadagi Stagira shahrida tug'ilgan. Otasi Nikomachus Aristotel bolaligida vafot etgan va u vasiyning qo'lida tarbiyalangan. Miloddan avvalgi 367-yilda, o'n yetti-o'n sakkiz yoshida, Afinaga borib, Platon akademiyasida[2] tahsil olgan. O'ttiz yetti yoshgacha (miloddan avvalgi 347-yil)gacha shu yerda qolgan. Aflatun vafotidan ko'p o'tmay, Aristotel Afinani tark etgan. Miloddan avvalgi 343-yildan

boshlab [Makedoniya](#) podshohi [Filipp](#) taklifi bilan shahzoda Aleksandrga murabbiylik qilgan. Miloddan avvalgi 335 yilda Afinaga qaytib, o‘zining [Likey maktabini](#) tashkil qilgan. Aleksandr vafotidan so‘ng 323-yilda xudosizlikda ayblanib, Evbeya Xalqidasiga qochishga majbur bo‘lgan va umrining oxirigacha shu yerda yashagan.

Arastu qomusiy bilimlar sohibi, peripatetika maktabi asoschisi, uning ta’limoti ayrim, alohida fanlarni falsafiy nuqtai nazardan yoritib berdi. Fan sohalarini tasniflashda falsafiy tizim yaratish bilan qilishni sevgan tafakkurini rivojlantirishga juda kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Arastu ijodi o‘z zamonidagi deyarli barcha bilim sohalarini qamrab oldi. O‘zining „ilk falsafa“ ga oid („Metafizika“) asarida Platonning g‘oyalari nazariyasini tanqid qildi. „Platon g‘oyalari“ moddiy predmetlarning oddiy nusxasi, aynan o‘zi ekanini ko‘rsatdi. Arastu ayrimlik va umumiylilikning o‘zaro munosabati masalasini hal etdi. Ayrimlik „biron-bir joy“dagina va „hozir“dagina mavjuddir, uni his bilan idrok etish mumkin. Umumiylilik esa har qanday joyda va har vaqtda („hamma yerda“ va „hamma vaqt“) mavjud, u muayyan sharoitda ayrim holda yuzaga kelib, shu ayrimlik orqali idrok qilinadi. Shuningdek umumiylilik — fan predmeti, uni aql vositasida bilib olish mumkin.

Arastu olamdagi hodisalar va predmetlarning sabablarini to‘rt guruhga bo‘ladi: 1) moddiy sabab yoki materiya; 2) shakliy sabab yoki shakl; 3) yuzaga keltiruvchi sabab; 4) oxirgi sabab yoki maqsad. Garchi Arastu materiyani dastlabki sabablardan biri, deb e’tirof etsa ham, uni faqat passiv asos, imkoniyat xolos, qolgan uch sababni esa — faol sabab, deb hisoblaydi. Masalan, uning fikricha, shaklsiz hech qanday narsaning bo‘lishi aslo mumkin emas, shakl — borliq mohiyatidir, shakl — abadiy, o‘zgarmas va moddiy sababdan ustunroqdir. Yuzaga keltiruvchi sabab harakat yoxud turg‘unlik manbaidir. Harakat, deydi Arastu, biron-bir narsaning imkoniyatdan voqelikka o‘tishidir. Harakatning to‘rt turi bor, bular: sifatli harakat yoki o‘zgarish; miqdoriy harakat yoki ko‘payish va kamayish; joyni o‘zgartirish yoki makondagi harakat; vujudga kelish va yo‘q bo‘lishdan iborat. Oxirgi sabab yoki maqsad — harakat, o‘zgarish, inson faoliyatining oqibatidir.

Arastu ta’limotiga binoan, xudo — o‘z qonunlari bo‘yicha rivojlanayotgan barcha shakllar, tabiatdagi jamiki hodisalar va hamma mavjud narsalarning oliy maqsadi, „shakllarning shakli“, maqsadi, olamni harakatga keltiruvchi ilk kuchdir. Arastu nazariyasiga ko‘ra, har qanday real mavjud bo‘lgan ayrim narsa „materiya“ bilan „shakl“ning birligidan iborat, „shakl“ esa narsaning o‘ziga xos „ko‘rinishi“dir, unga ham „materiya“, ham „shakl“ deb qarash mumkin. Shu tariqa butun voqe olam

„materiya“dan — „shakl“ ga va „shakl“dan — „materiya“ga izchil ravishda o‘tish jarayonidan iborat.

Arastu bilish haqidagi ta’limotida „dialektik“ bilish bilan „apodiktik“ bilishni bir-biridan farqlaydi. „Dialektik“ bilish — tajriba samarasi bo‘lmish „fikr“ni, „apodiktik“ bilish esa ishonchli bilimni vujudga keltiradi. Ammo Arastu tajribani ishonchli bilimning oliy darajasi, deb hisoblamaydi, uning fikricha, bilimning eng oliy qonun qoidalari bevosita aql vositasidagina idrok etiladi.

Arastu mantiq ilmining asoschisidir. Arastu yaratgan va „analitika“ deb nomlagan mazkur fan tafakkurning tushuncha, muhokama, xulosa kabi asosiy shakllaridan, ayniyat, qarama-qarshilik va uchinchisi istisno qonunlaridan, fikrni isbotlash yoxud rad etish uslublaridan, bir qancha kategoriyalardan iborat. Mantiq „ilk falsafa“ („metafizika“) bilan birgalikda fan sohalarining falsafiy tasnif tizimini tashkil etadi. Biologiya sohasidagi Arastu ilmiy xizmatlaridan biri — o‘simglik va hayvonot turlarining biologik jihatdan maqsadga muvofiqligi haqidagi ta’limotidir. O‘simgliklarning urug‘dan o’sib-rivojlanishi, hayvonlardagi instinctlarning maqsadga muvofiq tarzda yuzaga kelishi, a’zolarining o’zaro mutanosib ravishda harakat qilishi — tabiatdagi maqsadga muvofiqlik namunasidir.

Soliqlar haqida “Aristotel soliqlarni to‘lashni dasturxonga qo‘yilgan noz-ne’matlar sifatida tasvirlab unda hamma turlicha dehqonlar, hunarmandlar, mulk egalari to‘lovlarini amalga oshirishni aytib o’tgan”.[\[3\]](#)

Arastu jahon ilm tarixida ilk bor axloq fani — etikaga asos soldi. Uning axloq sohasidagi ma’naviy ideali Xudodir, Xudo eng oliy faylasuf va mutafakkirdir. Arastu aql-zakovatning kuzatish, mushohada qilishdan iborat faoliyatini barcha ne’matlardan ustun qo‘yadi, uni ezzulik, rohat va lazzat manbai, deb biladi. Amaliy faoliyat esa hamisha ham aql hukmiga bo‘ysunavermaydi, binobarin kundalik ishlarda ham aql, ham hayotiy tajribani ishga solib o‘rta yo‘lni tanlagan ma’qul.

Arastuning siyosiy qarashlari „inson — ijtimoiy mahluqdir“ degan g‘oyaga asoslanadi, ya’ni oila, jamiyat, davlat — inson hayoti va faoliyatining asosiy sohalaridir, bularsiz u yashay olmaydi. Arastu oilaviy va ijtimoiy tarbiyani davlat tuzumini mustahkamlash vositasi, deb biladi, binobarin maktab faqat davlatniki bo‘lishi, unda barcha fuqarolar (qullardan tashqari) avvalo davlat tuzuk tartibotidan saboq beruvchi ilmlarni egallashi shart. Arastu davlat masalasida har qanday arbob qulay siyosiy shart-sharoit vujudga kelishini kutib o‘tirmay, mavjud imkoniyatdan kelib chiqib, yaxshi konstitutsiya asosida kishilarni boshqara bilishi, birinchi galda yosh avlodning jismoniy va aqliy tarbiyasi haqida qayg‘urishi lozim, deb hisoblaydi.

Arastu davlatni idora etishning uchta ma'qul va uchta noma'qul shakli mavjud, degan g'oyani olg'a suradi. Yaxshi boshqaruv shakllari amal qilgan davlatda undan g'arazli maqsadlarda foydalanish imkonи istisno etiladi, hokimiyat esa butun jamiyat xizmatida bo'ladiki, bular — monarxiya (yakka podsho hukmronligi), aristokratiya (aslzodalar hukmronligi) va „politiya“ (o'rta tabaqa, mo'tadil demokratiya hukmronligi)dir. Aksincha, tiraniya (zolimona hukmronlik), sof oligarxiya (qudratli kishilar to'dasining hukmronligi) va oxlokratiya (haddan oshgan olomon hukmronligi) — monarxiya, aristokratiya va „politiya“ shakllarining vaqt o'tishi bilan batamom aynigan, yuz tuban ketgan ko'rinishidir.

Arastuning tarbiya nazariyasi zamirida axloqiy va ruhiy qarashlari yotadi: tarbiyadan maqsad — ruhning oliv jihatlari bo'lmish aql-zakovat va irodani kamol toptirishdir. Tarbiyaning o'zaro chambarchas bog'liq uch jihat — jismoniy, axloqiy va aqliy tarbiya — ruhning uch turiga muvofiq keladi, ya'ni kamolatga erishishning harakatlantiruvchi kuchlari — tabiiy qobiliyat, ko'nikma va aql-idrokdan iborat hamda tarbiya ishi ayni shu kuchlarga asoslanishi zarur. Arastu o'z iqtisodiy ta'limotida qullik — tabiiy bir hodisa va u doimo ishlab chiqarish? negizi bo'lishi lozim, degan nuqtai nazarga suyanadi. U tovar-pul munosabatlarini tadqiq etib, natural xo'jalik bilan tovar ishlab chiqarish? o'rtasidagi tafovutlarni anglab etish darajasiga yaqin keldi. Uningcha, boylik ikki turdan iborat: iste'mol qiymatlari yig'indisi sifatidagi boylik va tovar ayrboshlash qiymatlari sifatidagi boylik. 1-tur boylik (uni Arastu „tabiiy boylik“ deb ataydi) manbai — dehqonchilik va hunarmandchilik bo'lib, kishilarning tub ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qiladi. 2-tur boylik esa (uni Arastu „g'ayritabiyy boylik“ deb nomlagan) aksincha, bevosita ehtiyoj buyumlaridan iborat bo'lmay, o'zaro ayrboshlash, muomala negizada vujudga keladi. Boylik 1-turining miqdori inson ehtiyojlari bilan chegaralansa, 2-turining miqdorini esa aslo cheklab-chegaralab bo'lmaydi. Shuningdek Arastu iste'mol qiymati bilan tovar qiymati o'rtasidagi chegarani birinchi bo'lib belgilab berdi, turli xil tovarlari faqat pul vositasida o'zaro qiyoslash mumkin, deb hisobladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Aristotel - "Metafizika" (Metaphysics)
2. Aristotel - "Nikocha Etikasi" (Nicomachean Ethics)
3. Aristotel - "Politika" (Politics)
4. Aristotel - "Organon" (Organon)
5. Heath, M. (2000) - Aristotle: Logic and Metaphysics.
6. Russell, B. (1946) - A History of Western Philosophy.
7. Kenny, A. (2010) - Aristotle.
8. Irwin, T. (1988) - Aristotle's First Principles